



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



IC² JOURNALS
MASTER LIST

ISSN

INTERNATIONAL
JOURNAL
INDEX
SERIES
REGISTRATION
CENTRE

doi

zenodo

OpenAIRE

Academic
Resource
Index
ResearchBID

Google Scholar

open access.nl



INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI

3-JILD, 8-SON
2026

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:



Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

3-JILD, 8-SON | AVUGUST - 2026 |

+99833 5668868 | www.innoworld.net | @Anvarbek_PhD

LINGVOKULTUROLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY QO‘LLANILISHI

Abduxafizova Moxinur Abdug'offorqizi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

IT va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi

1-bosqich 25-11-guruh talabasi

moxinurabduxafizova@gmail.com

+998934161772

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvokulturologiya fanining mazmun-mohiyati, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik hamda milliy-madaniy mazmunning til orqali ifodalanishi yoritilgan. Lingvokulturologiyaning nazariy asoslari, uning tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan aloqasi tahlil qilingan. O‘zbek, rus, ingliz, yapon va arab madaniyatlari misolida xalqning qadriyatlari, mentaliteti, urf-odatlar va dunyoqarashi til birliklari orqali qanday aks etishi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, maqolada lingvokulturologiyaning tarjimashunoslik, chet tillarini o‘qitish, badiiy adabiyot tahlili hamda madaniyatlararo kommunikatsiyadagi amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida tilning nafaqat aloqa vositasi, balki milliy madaniyat va xalq ruhiyatining yorqin ifodasi ekanligi asoslab berilgan.

Kalitso‘zlar: lingvokulturologiya, til, madaniyat, milliy qadriyatlar, mentalitet, tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya, konsept, frazeologiya, maqol va matallar.

Аннотация: В данной статье освещаются сущность лингвокультурологии, тесная взаимосвязь языка и культуры, а также отражение национально-культурного содержания через язык. Проанализированы теоретические основы лингвокультурологии, её связь с языкознанием и культурологией. На примере узбекской, русской, английской, японской и арабской культур показано, как ценности народа, менталитет, традиции и мировоззрение отражаются в языковых единицах. Также в статье раскрывается практическое значение лингвокультурологии в переводе, преподавании иностранных языков, анализе художественной литературы и межкультурной коммуникации. В результате исследования обосновано, что язык является не только средством общения, но и ярким выражением национальной культуры и духовного мира народа.

Ключевые слова: лингвокультурология, язык, культура, национальные ценности, менталитет, переводоведение, межкультурная коммуникация, концепт, фразеология, пословицы и поговорки.

Abstract: This article highlights the essence of linguoculturology, the close relationship between language and culture, as well as the expression of national and cultural content through language. The theoretical foundations of linguoculturology and its connection with linguistics and cultural studies are analyzed. Using the examples of Uzbek, Russian, English, Japanese, and Arab cultures, the article demonstrates how people’s values, mentality, traditions, and worldview are reflected in linguistic units. It also reveals the practical significance of linguoculturology in translation studies, foreign

language teaching, literary analysis, and intercultural communication. The study proves that language is not only a means of communication, but also a vivid expression of national culture and the spiritual world of a people.

Keywords: linguoculturology, language, culture, national values, mentality, translation studies, intercultural communication, concept, phraseology, proverbs and sayings.

Kirish

Til va madaniyat inson hayotida bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikki muhim hodisadir. Har bir xalqning tili uning tarixiy taraqqiyoti, urf-odatlar, dunyoqarashi va milliy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shu sababli tilni faqat grammatik birliklar tizimi sifatida emas, balki madaniyatning ifodasi sifatida ham o‘rganish zarurati paydo bo‘lgan. Ana shu ehtiyoj natijasida lingvokulturologiya fani shakllangan [1,31]. Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni o‘rganadigan fan bo‘lib, u milliy mentalitet, qadriyatlar va madaniy belgilarni til vositasida tahlil qiladi. Bugungi globallashuv davrida ushbu fan nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutashgan nuqtasida vujudga kelgan fan hisoblanadi. U til birliklari orqali madaniy mazmunni aniqlash va izohlash bilan shug‘ullanadi. Mazkur fan XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi [2,48].

Lingvokulturologiyaning asosiy obyekti til va madaniyatning o‘zaro ta‘siridir. Predmeti esa milliy-madaniy semantikaga ega bo‘lgan til birliklarini o‘rganishdan iborat. Bunga maqollar, matallar, frazeologizmlar, ramziy ifodalar, milliy obrazlar va konseptlar kiradi [3]. Masalan, o‘zbek tilidagi “mehmon otangdan ulug‘” degan maqol xalqimizning mehmondo‘stlikka bo‘lgan yuksak munosabatini ifodalaydi. Bu nafaqat oddiy gap, balki milliy madaniyatning til orqali aks etgan ko‘rinishidir. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri “konsept” hisoblanadi. Konsept inson ongida shakllangan madaniy va ma‘naviy mazmunga ega tushunchadir. Lingvokulturologiyada konsept tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. V.A. Maslovaning ta‘kidlashicha, konsept madaniyatni inson ruhiy olami bilan bog‘lab turuvchi ko‘p qirrali mental birlikdir. U nafaqat tushunchani, balki o‘sha tushuncha bilan bog‘liq bo‘lgan milliy his-tuyg‘ular, obrazlar va qadriyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, “ona” yoki “non” konseptlari o‘zbek madaniyatida shunchaki so‘z emas, balki muqaddaslik va baraka ramzlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyot tahlillari va metodlar

Lingvokulturologiya – til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, ularning bir-biriga ta‘sirini hamda milliy-madaniy mazmunning til orqali ifodalanishini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Ushbu fan xalqning dunyoqarashi, urf-odatlar, qadriyatlari, mentaliteti va tarixiy tajribasining tilda qanday aks etishini tahlil qiladi. Lingvokulturologiya atamasi ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, “lingvo” lotin tilidagi “lingua” so‘zidan olingan va “til” ma‘nosini anglatadi, “kulturologiya” esa lotincha “cultura” – “madaniyat” hamda yunoncha “logos” – “ta‘limot”, “fan” so‘zlaridan kelib chiqqan. Demak, lingvokulturologiya so‘zining umumiy ma‘nosi til va madaniyat haqidagi fan, ya‘ni til orqali madaniyatni o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish deganidir. Bu fan tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutashgan nuqtasida shakllangan bo‘lib, ayniqsa maqollar, matallar, frazeologik birliklar, ramziy ifodalar va milliy konseptlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek madaniyatida til orqali hurmat,

mehmondo'stlik, kattaga ehtirom va oilaviy qadriyatlar kuchli ifodalanadi. Masalan, “Mehmon otangdan ulug’”, “Kattaga hurmat, kichikka izzat” kabi maqollar xalqimizning axloqiy qarashlarini ko'rsatadi. O'zbek tilida qarindoshlik atamaları ham juda boy: amma, xola, tog'a, amaki, jiyan, pochcha kabi so'zlar oilaviy munosabatlarning muhim o'rin tutishini bildiradi[4]. Bu boshqa ko'plab tillarda bitta umumiy so'z bilan ifodalanishi mumkin.

Rus madaniyatida esa sabr-toqat, hayot sinovlariga bardosh berish va ichki ruhiy holat ko'proq til orqali ifodalanadi. Masalan, rus tilidagi “Терпение и труд все перепрут” maqoli sabr va mehnatning kuchini ifodalaydi. Shuningdek, rus tilida “душа” (ruh, qalb) tushunchasi juda keng ma'noda qo'llanadi va insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi muhim konsept hisoblanadi. O'zbek tilida ham “ko'ngil” tushunchasi shunga yaqin bo'lsa-da, ularning madaniy talqini farq qiladi.

Ingliz madaniyatida esa mustaqillik, shaxsiy erkinlik va vaqtga qat'iy rioya qilish muhim qadriyat sanaladi. Masalan, “Time is money” iborasi vaqtning qadrini va ishbilarmonlik ruhini ifodalaydi. O'zbek madaniyatida esa insoniy munosabatlar ko'pincha vaqt masalasidan ustun turadi. Mehmonni kutib olish yoki yaqin inson bilan uzoq suhbatlashish ijtimoiy qadriyat sifatida baholanadi.

Yapon madaniyatida esa tartib-intizom, jamoaga hurmat va kamtarlik til orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Yapon tilida murojaat shakllari juda murakkab bo'lib, suhbatdoshning yoshi, mavqei va ijtimoiy o'rniga qarab tanlanadi. O'zbek tilida ham sizlash, hurmatni fodalovchi qo'shimchalar mavjud, ammo yapon tilidagi kabi juda qat'iy tizimga ega emas.

Arab madaniyatida diniy tushunchalar va e'tiqod tilning markaziy qismida turadi. Kundalik nutqda ham diniy iboralar keng qo'llanadi. Masalan, “Inshaalloh”, “Alhamdulillah”, “Mashallah” kabi birliklar oddiy muloqotning ajralmas qismidir. O'zbek tilida ham diniy ta'sir mavjud, ammo arab tilidagidek har bir kundalik vaziyatda doimiy qo'llanmaydi. Lingvokulturologiya turli madaniyatlarda xalqning ruhiyati, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiradi. O'zbekiston misolida til orqali hurmat, mehmondo'stlik, oilaparvarlik va milliy an'analar kuchli namoyon bo'lsa, boshqa xalqlarda vaqt, intizom, mustaqillik yoki diniy qadriyatlar ustun bo'lishi mumkin. Bu farqlar tilning nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatning tirik ifodasi ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Muhokama va natijalar

Lingvokulturologiya bugungi kunda ko'plab sohalarda amaliy ahamiyatga ega. Lingvokulturologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, til birliklari shunchaki axborot uzatmaydi, balki millatning “madaniy kod”larini saqlaydi. Masalan, o'zbek tilidagi lisoniy birliklarning aksariyati jamoaviylik (mehmondo'stlik, mahalla, qarindoshlik) asosiga qurilgan bo'lsa, g'arb tillarida individualizm (shaxsiy erkinlik, vaqtni qadrlash) ustunlik qiladi. Bu esa tarjima jarayonida nafaqat so'z muqobilini, balki madaniy muqobilni topishni taqozo etadi. Ayniqsa, tarjimashunoslik, chet tillarini o'qitish, adabiyot tahlili va madaniyatlararo kommunikatsiyada uning o'rne juda muhimdir[5,118]. Tarjima jarayonida faqat so'zning lug'aviy ma'nosini emas, balki uning madaniy mazmunini ham to'g'ri yetkazish talab etiladi. Aks holda mazmun yo'qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Masalan, milliy taomlar, urf-odatlar yoki maqollarni tarjima qilishda lingvokulturologik yondashuv zarur bo'ladi. Chet tillarini o'qitishda ham faqat

grammatika va lugʻat boyligini oʻrgatish yetarli emas. Til egasining madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashini ham tushuntirish lozim. Bu esa oʻquvchining tilni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Badiiy adabiyot tahlilida lingvokulturologiya muallifning milliy ruhini, obrazlar tizimini va ramziy ifodalarini ochib berishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Adabiy asarda ishlatilgan iboralar, metaforalar va ramzlar koʻpincha milliy madaniyat bilan bogʻliq boʻladi. Bundan tashqari, xalqaro aloqalar rivojlanayotgan bugungi davrda turli madaniyat vakillari oʻrtasidagi muloqotni samarali tashkil etishda ham lingvokulturologiya katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Lingvokulturologiya til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni oʻrganadigan muhim fan sifatida zamonaviy tilshunoslikda alohida oʻrin egallaydi. U til birliklarida yashiringan milliy ruh, madaniy qadriyat va tarixiy tajribani ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur fan nafaqat nazariy jihatdan, balki itarjima, taʼlim, adabiyot va madaniyatlararo muloqot kabi amaliy sohalarda ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy oʻzlikni anglash va uni saqlashda lingvokulturologik tadqiqotlar muhim rol oʻynaydi. Shunday ekan, tilni chuqur oʻrganish uchun uni madaniyat bilan birgalikda tahlil qilish zarur. Zero, til millat ruhining eng yorqin aksidir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – Москва: РУДН, 1997.
3. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996.
4. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Fan, 2008.